

AXSIKENT KULOLCHILIGI TARIXI

Xatammirzayeva Sevara Odiljon qizi*Kamoliddin Behzod nomli Milliy rassomlik
va Dizayn instituti "Tasviriy va amaliy bezak
san'ati" mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida joylashgan qadimiy Axsikent yodgorligi, unda amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar hamda shaharning kulolchilik sohasidagi tarixi haqida so'z boradi.

Аннотация: В данной статье рассказывается о древнем памятнике Ахсикент, расположенном в Торакурганском районе Наманганской области, проведенных в нем археологических исследованиях и истории города в области керамики.

Annotation: This article talks about the ancient monument of Akhsikent located in the Torakurgan district of Namangan region, the archaeological researches carried out in it, and the history of the city in the field of ceramics.

Kalit so'zlar: Axsikent, Eski Ahsi, temuriylar davridagi Ahsi, Veselovskiy, Kastanye, Ershi, kulolchilik, terrakota, sirli va sirsiz spool buyumlar.

Ключевые слова: Ахсикент, Старый Ахси, Ахси Тимуридов, Веселовский, Кастанье, Эрши, керамика, терракота, загадочные и незагадочные катушечные изделия.

Key words: Akhsikent, Old Akhsi, Akhsi of the Timurid period, Veselovsky, Kastanye, Ershi, pottery, terracotta, enigmatic and non-enigmatic spool items.

Axsikent Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi Shahand qishlog'i hududida, Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan qadimiy shahar xarobasi hisoblanib, mil. avv. III-II asrlarda vujudga kelgan, IX-X asrlarda Farg'ona vodiysining poytaxti bo'lgan. Axsikent shahri qadimgi Davan davlatining poytaxti – Ershi bo'lishi mumkin deb hisoblanadi.

Axsikent hududidagi eng birinchi arxeologik qazishma ishi 1885-yilda Peterburg universitetining professori, taniqli arxeolog va sharqshunos N.I.Veselovskiy tomonidan amalga oshirilgan. Veselovskiy qazishma ishlari yuzasidan tuzgan hisobotida topilgan narsalar muhimligi ko'rsatilgan bo'lsa-da, ammo qazishma ishlarining rejasi ko'rsatilmagan. Topilgan ashyolar sistemalashtirilmagan va davrlashtirilmagan. Bunga o'sha paytda Turkistonda arxeologik qazishma ishlari endi boshlanayotganligi, topilmalarni aniqlash va davrlashtirish-ning maxsus yo'llanma va ko'rsatmalari ishlab chiqilmaganligi sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.[1]

Yodgorlikda amalga oshirilgan ikkinchi qazishma ishi 1914 yilda Iosif Antonovich Kastanye tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, Kastanye o'zidan oldingi tekshirish ishlarini o'tkazgan N.I.Veselovskiyning ma'lumotlari va yozma manbalarga suyangan holda Axsikent tarixini o'rganish masalalari, kuzatuv va qazishma ishlarining bayonini hisobot tariqasida yozib topshirgan. Hisobotga shahar planini tuzib, ilova qilgan. Lekin bu plan yuzaki ishlangan bo'lib, shahristonni rabot bilan almashtirib qo'ygan va chalkash fikrlarni bayon qilgan. Uning to'plagan dala materiallari va qazishma topilmalari davrlashtirilmagan (O'rta asrga oid tangalardan tashqari), shahar topografiyasi va stroteografiyasi bo'yicha hech qanday xulosalar chiqarilmagan. Shunday bo'lishiga qaramay I. A. Kastanye olib borgan tadqiqot ishlari mukammal bo'lmasa ham N. I. Veselovskiy ishlariga nisbatan Axsikent shahristonini o'rganishda oldinga qo'yilgan yana bir yangi qadam bo'lgan.

Axsikentni arxeologik jihatdan tadqiq etish asosan Sobiq Sovet hokimiyati davrida boshlandi. 1939-yilda Katta Farg'ona kanali qurilishi davrida professor M. Ye. Masson Axsikentga kelib, arxeologik razvedka ishlarini olib boradi. Uning ko'rsatishicha, shahristonning g'arbiy qismidagi quyi qatlamlar orasida qadimgi davrlarga mansub yozuvli va suratli (rospis) sopollar mavjud.

1946 – 1948-yillarda professor Aleksandr Natanovich Bernshtam rahbarligidagi Pomir-Oloy arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan qazishma ishlari o'tkazilgan. Axsikent haqida A. N. Bernshtam tarixiy arxeologik jixatdan muhim va qiziqarli ma'lumotlarni aniqlagan, hamda u o'z axborotida bayon qilgan.[2]

Axsikentda turli yillarda rus olimlari tomonidan o'tkazilgan arxeologik kuzatuv va qazishmalar natijasida muhim tarixiy ma'lumotlar to'plandi, hamda dastlabki arxeologik fikrlar ilgari surildi. Asosiysi, Axsikent xarobasi olimlarni o'ziga jalb etdi va sekin-astalik bilan o'z sirlarini ocha boshladi.

1960-yildan boshlab O'zFA ning arxeologik olimlari marhum Akademik Yaxyo G'ulomov boshchiligidagi Axsikentda arxeologik qazishma ishlarini o'tkaza boshladilar. Muttasil o'tkazib kelingan dala ekspeditsiyasi ishida arxeologik olimlardan I. Axrorov, A. Anorboev, Y. Qosimov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan 1967-1969, 1970-1974, 1980-1990 va undan keyingi yillarda arxeologik qazishmalar o'tkazildi hamda muhim ma'lumotlar, ashyoviy dalillar to'plandi.

Bugungi kunda Namangan davlat universitetining Sh. Nasriddinov va boshqa arxeologlari tomonidan Axsikent hududida arxeologik qazishma ishlari olib borilmoqda.

Axsikent yodgorligi hududida amalga oshirilgan arxeologik qazishma ishlariga tayanib, shuni aytish mumkinki yodgorlik majmuasi yirik uch qismga va uch davrga mansub. Shuning uchun Axsikent quyidagi uch qismga ajratib sharhlanadi:

1-davr: Eski Axxi qismi quldorlik davriga – eramizdan avvalgi uchinchi asridan, eramizning beshinchi asrigacha oid bo‘lgan qismi. Mahalliy xalq orasida Eski Axxi deb yuritiladi.

2-davr: Ilk o‘rta asrlardagi Axxikent yoki shaharning alohida ikkinchi qismi. Bu davrda eramizning oltinchi asrida shahar qad ko‘tarib, IX–XIII asrning 1-choragini o‘z ichiga olgan shahar bo‘lgan va rivojlangan markaziy poytaxt shaharga aylangan.

3-davr: Uchinchi qism va uchinchi davrga mansub hudud, Axxikent-arxeologik yodgorligi majmuasining g‘arbiy qismida, hozirgi Axxi qishlog‘iga yaqin joyda bo‘lgan. Yangi Axxi yodgorligi o‘rnida bo‘lgan Axxikent shahri Temuriylar davriga mansubdir. Bu XIV–XVII asrlarda Temuriylar hukmronlik qilgan davrlarda Zaxiriddin Muhammad Boburning otasi Mirzo Umarshayx (1462-1494) tomonidan Axxi qo‘rg‘onini qayta bunyod etilishi va poytaxtga aylanishi bilan bog‘liqdir.

Shaharning nufuzi oshishi bilan har tomonlama rivojlangan, maishiy turmush sharoitlari yaxshilanib borgan. Jumladan, shaharga 14-15 km masofadan, ya‘ni Kosonsoydan suv keltirilgan. Bosh vodoprovod qoldiqlari 1960-yillarda topilgan. Ichki shahristonning ikki joyidan yer osti vodoprovodi ochilgan. Ular X asrda bunyod etilgan. Uni qurishda dastlab quruvchilar yer usti tunneli qazigan, keyin uning ichida pishiq g‘ishtdan yarim gumbazsimon inshoot qurib, uning tubiga katta diametrli sopol quvurlar yotqizganlar. Sopol quvur parchalari Shahriston va rabotning hamma joyidan topilgan. U aholiga 200 yildan ziyod xizmat qilgan.

Axxikent hududida eng qadimgi davrlardan hunarmandchilikning kulolchilik sohasi yaxshi rivojlangan. Jumladan, Eski Axxidan, ya‘ni antik davrdagi qismdan mudofaa devorlari, paxsa, g‘isht devor qoldiqlari, naqshli sopol buyumlar topilgan. Topilmalar orasida yana eng muhimi mustahar (flyagalar) bo‘lib, ular eramizdan oldingi III asrga tegishli bo‘lgan. To‘rtburchaklarga o‘xshash sopol buyumlarni esa akademik Yaxyo G‘ulomov sinchiklab o‘rganib chiqib, qadimiy Farg‘ona sopoli yoki “Davan tipi” ga mansub deb baholagan. 1976 yillarda Respublika Arxeologiya instituti tomonidan olib borilgan qazishmalar paytida X–XIII asrlarga doir sopol idish parchalari va Somoniylar davrida zarb etilgan tangalar topilgan.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, arxeologlar Inqilob Ahrorov va Abdulhamid Anorboyevlar tomonidan turli yillarda qazishma ishlari olib borilishi natijasida shahriston qismidagi quyi qatlamlar, mudofaa devorlari, xom g‘ishtdan qurilgan 4,5,6 xonali uylar, o‘choq, supa, quduq, omborxonalar topilib eramizdan avvalgi III – II asrlarga taalluqli ekanligi aniqlandi. Saqlanib qolgan qal‘aning eng pastidagi mudofaa devorlari qoldiqlari ham topib o‘rganildi. Antik davr Axxikentida kulolchilik rivojlanganligini isbotlovchi har-xil hajmdagi kosalar, xumlar va boshqa qadahsimon idishlar topilgani, ularga mohirlik bilan ishlov berilganligini ham alohida aytish mumkin.

Arxeolog A. Anorboyev tomonidan shaharning ark, shaxriston va rabot qismlarida o'tkazilgan keng ko'lamli arxeologik tadqiqot ishlari natijasida IX-XIII asrlarga oid sirli va sirsiz sopol idishlar, mis va kumush tangalar, shisha idishlar, metall buyumlar, me'moriy qurilish qoldiqlari, ko'plab munchoqlar hamda chiroqlar topib o'rganilgan [3].

XIII asrda Movarounnahr yerlari mo'g'ullar bosqiniga uchrab, madaniy taraqqiyot darajasi sezilarli darajada pasaygan. Bu davrda Axsikent mo'g'ullar tomonidan shahar vayron qilinganiga qaramay, Axsikent sirlangan va sirlanmagan sopol buyumlar ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi hunarmandchilik markazi bo'lib qolavergan. Qadimgi shahar hududidan o'ziga xos yashil-firuzarang tusli kosalar topilgan. Turli xil idish-tovoqlar, naqshlar bilan bezatilgan idishlar, odamlar tasvirlari tushirilgan parchalar ham topilgan. Shahristonda qazilma ishlari natijasida terrakota* o'choqlari topilgan.[4]

Yuqoridagi tadqiqot natijalaridan kelib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Qadimiy Axsikent yodgorligi qariyb ikki ming uch yuz yillik tarixga ega bo'lib, antik davr, ilk, rivojlangan va so'nggi o'rta asrlar davrida shahar sifatida qad ko'tarib turgan. XVII asrda yuz bergan zilzila va aholining Namangan hududlariga ko'chishi bilan shahar o'z ahamiyatini yo'qotgan;

- Axsikent hududi Veselovskiy, Kastanye, Bernshtam, Masson, Yaxyo G'ulomov, Axrorov, Anorboyev sinagri arxeologlar tomonidan tizimli ravishda o'rganilib ko'xna shaharga tegishli ko'plab arxeologik ashyolar jamlangan;

- Axsikent tarixiga doir topib o'rganilgan hunarmandchilik buyumlari, ayniqsa, sopoldan yasalgan sirli va sirsiz holatdagi xo'jalikda ishlatiladigan har xil xum, kosa, piyola, lagan, chiroq va boshqa buyumlar, terrakota pishirilgan o'choqlarning mavjudligi bu hududda antik davrlardan beri kulolchilik sohasi yuksak taraqqiyot bosqichini bosib o'tganini anglatadi. Hozirda Axsikentdan topilgan kulolchilik buyumlari Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida va Axsikentda yaqinda barpo etilgan Qadimiy topilmalar muzeyida saqlanmoqda.

Umumiy xulosa qilib aytganda, Axsikent yodgorligi Farg'ona vodiysi hududidagi eng qadimiy shahar hisoblanib, ichki va tashqi savdoda muhim ahamiyat kasb etgan. Qadimiy Buyuk Ipak yo'lida muhim strategik savdo nuqtalaridan biri sifatida shuhrat topgan. Uzoq davrlik taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligi sababli o'zining mustaqil kulolchilik maktabiga ega bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

* Izoh: **terrakota** – (italyancha so'zdan olingan bo'lib, terra – yer, tuproq, cotta – qizdirilgan) Atama tor ma'noda – loydan ishlanib xumdonda pishirilgan sirlanmagan va rang berilmagan mayda haykalchalarga nisbatan, keng ma'noda – loydan tayyorlanib, maxsus xumdonlarda qizdirilgan badiiy va amaliy ahamiyatga ega sirlangan idishlar, ko'za, haykalcha, o'yinchoq, koshin va boshqa spool buyumlar nisbatan ishlatiladi.

1. Ахсикат // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. А ҳарфи. “Ўз МЭ” Давлат илмий нашриёти. – Тошкент. – Б. 819.
2. Қосимов Й. Қ. Қадимги Фарғона сирлари. – Наманган, 1992. – Б. 61.
3. Нажмиддинов А. Ахсикент ёдгорлигида олиб борилган археологик тадқиқотлар тарихидан / Тарих тилга кирганда... 2021 йил, № 13. – Б. 33.
4. Qadimiy Axsikent shahri // <https://uzbekistan.travel/uz/o/qadimiy-axsikent-shahri/>
[Murojaat qilingan sana: 24.10.2024]

